

# Konstitutsiya - huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishning eng muhim mezonidir

Humoyun Usmon o'g'li Ruzatov  
ruzatovh@gmail.com

Toshkent davlat yuridik universiteti qoshidagi akademik litsey

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Konstitutsiyamizning yaratilish tarixiga oid ma'lumotlar, o'ziga xos xususiyatlari o'rin olgan. Maqolada fuqarolar huquq va erkinliklarining kafolatlari sifatida konstitutsiyaning ahamiyati borasida ma'lumotlar yoritilgan. Shuningdek, jamiyat hayotida konstitutsiyaning tutgan roli borasida turli shaxslarining fikr va mulohazalari berilgan. Huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini qurishda konstitutsiyaning bugungi kundagi qiymati turli misol va namunalar keltirish orqali ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Konstitutsiya, demokratik davlat, qonun ustuvorligi, inson huquq va erkinliklari.

## The Constitution is the most important criterion for building a democratic state and civil society based on the rule of law

Humoyun Usmon o'glu Ruzatov  
ruzatovh@gmail.com

Academic lyceum under the Tashkent State Law University

**Abstract:** This article contains information about the history of our Constitution, and its peculiarities. The article highlights the importance of the constitution as a guarantee of citizens' rights and freedoms. Also, there is given the views and opinions of various individuals on the role of the constitution in the life of society. The present value of the constitution in building a democratic state and civil society based on the rule of law has revealed through various examples and examples.

**Keywords:** Constitution, rule of law, democratic state, human rights and freedoms.

Har bir davlat o'z istiqloq va taraqqiyot yo'lini tanlar ekan, eng muhim maqsad va vazifalarini belgilab oladi. Mamalakatimiz mustaqilligining ilk davrida qabul qilingan Konstitutsiyada ham xalqimizning xohish-irodasi, inson huquq va manfaatlari, davlat tuzilishi o'z irodasini topgan. Bosh qomusimiz, jinsi, irqi, millati, dini, ijtimoiy kelib

chiqishidan qat'i nazar, yurtimiz fuqarolari tengligining kafolatlanishini qayd etdi va zamonaviy demokratik taraqqiyot uchun zamin yaratdi.<sup>1</sup>

Demokratik fuqarolik jamiyatni qurishni maqsad qilib qo'ygan har qanday davlatning demokratlashuviga xos xususiyatlarni ko'rsatuvchi shartlaridan biri-inson huquq va erkinliklarining qonunlarda to'liq belgilanishi hamda ularning ta'minlanishi uchun shart-sharoitlarning yaratilishi bilan belgilanadi. O'zbekistonda huquqiy demokratik davlatni qurishdan asosiy maqsad - ushbu davlatda yashovchi har bir fuqaroning huquq va erkinliklarini to'la ta'minlashdan iboratdir.<sup>2</sup>

Konstitutsiyani yaratish yo'lidagi ilk huquqiy qadam o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishidir. Keyin esa ikkinchi huquqiy qadam Prezidentlik institut ta'sis etilishi va yangi davlat ramzlarini tayyorlash bo'yicha komissiya tuzilishi bilan bog'liq. "Mustaqillik deklaratsiyasi"ning e'lon qilinishi bilan uchinchi huquqiy qadam qo'yildi. Keyingi qadam esa Konstitutsiyaviy komissiyaning tashkil etilishiga borib taqaladi. Oliy Kengash qarori bilan 1990-yil 21-iyun kuni O'z. Res Birinchi Prezidenti I.Karimov raisligida davlat arboblari, mutaxassislardan iborat komissiya tuzildi va shu komissiya tomonidan 2 yildan ortiq vaqt mobaynida tayyorlandi. Keyinchalik 1992-yil 8-sentabrda Konstitutsiya loyihasini umumxalq muhokamasiga e'lon qilishga qaror qiladi va 26-sentabr kuni matbuotda chop etiladi. Takliflar ham inobatga olinib, ayrim o'zgartirishlar kiritilib, 21-noyabrda umumxalq muhokamasi uchun ikkinchi marta gazetalarda chop etiladi. Eng so'nggi o'ninchi qadam esa Konstitutsiya loyihasining qabul qilinishidir.

Sohibqiron Amir Temur bobomiz "Davlat qonunlar asosida qurilmas ekan, unday saltanatning shukhi, qudrati va tarkibi yo'qoladi", deb ta'kidlagan edi. Shundan kelib chiqqan holda, Konstitutsiya mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat barpo etishda hamda fuqarolik jamiyatini bunyod etishda bosh omil hisoblanadi. Har qanday demokratik islohotlar natijasi, mamlakatda tinchlik hamda taraqqiyotning bosh omili ham konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta'minlanishi va shu orqali jamiyatda huquqiy demokratik davlatni barpo etish, qolaversa, fuqarolik jamiyati yaratish bilan bevosita bog'liq.<sup>3</sup>

Konstitutsiya O'zbekistonda erkin fuqarolik jamiyati, ya'ni xalqning o'zi bevosita boshqariladigan jamiyat va demokratik huquqiy davlat qurishni asosiy maqsad qilib qo'yadi. Unda «jamiki dunyoviy ne'matlar orasida eng ulug'i - inson» ekanligi yorqin mujassamlashtirilgan. Insonni ulug'lash, uni muhofaza qilish va har tomonlama kamol toptirish Konstitutsiyamizning asosiy g'oyasiga aylantirilgan. Zero,

<sup>1</sup>Prezident SH.M.Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganing 27 yilligiga bag'ishlangan marosimdagi ma'ruzasi. 07.12.2019.

<sup>2</sup>X. Odilqoriyev va boshqalar. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish.. Toshkent-2010.

<sup>3</sup> Prezident SH.M.Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganing 27 yilligiga bag'ishlangan marosimdagi ma'ruzasi. 07.12.2019.

Konstitutsiyamizning eng katta va muhim qismi «Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari» deb nomlangan II boʻlimidir.

Har qanday demokratik islohotlar natijasi, mamlakatda tinchlik hamda taraqqiyotning bosh omili ham konstitutsiya va qonun ustuvorligini taʼminlanishi va shu orqali jamiyatda huquqiy demokratik davlatni barpo etish, qolaversa, fuqarolik jamiyati yaratish bilan bevosita bogʻliq.

Asosiy qonunimizda inson huquq va erkinliklariga amal qilinishini taʼminlash, har bir shaxsning qadr-qimmatini eʼzozlash, barpo etayotgan adolatli jamiyatimizning ajralmas xususiyatlaridan biridir. Shuningdek. Asosiy qonunimizning 7-moddasida: xalq davlat hokimiyatining birdan bir manbasi sifatida belgilab qoʻyilganligi, 13-moddasiga koʻra: Oʻz Res demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga koʻra inson, uning hayoti, erkinligi, shaʼni, qadr-qimmat va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi. Bu moddalarga koʻra, davlat oʻz faoliyatini faqat inson va jamiyat farovonligini koʻzlab amalga oshirishini anglatadi. Qolaversa, mamlakatimizdagi insonparvar siyosatning amaliy namunasini 2019-yil Jasliq qoʻrgʻonidagi jazoni ijro etish koloniyasini yopilganini aytishimiz mumkin. Bundan tashqari, ozodlikdan mahrum etilgan shaxslarga pensiya va ijtimoiy sugʻurta toʻlash tartibi ilk bor amaliyotga kiritildi. Mana shundan keyin pensiya yoshidagi koʻplab mahkumlarga pensiya pullari toʻlab berildi.

Shuningdek, inson huquq va erkinliklarini qadrlash, hurmat qilish madaniyatini shakllantirish va shu borada oʻqitishning uzluksiz tizimini yaratish, oliy oʻquv yurtlarida, kadrlar tayyorlash markazlarida yoki boʻlmasam, kurslarda “jamiyatdagi inson huquqlari”, “jamiyatdagi bola huquqlari”, “xotin-qizlar huquqlari” nomli maxsus oʻquv kurslarini joriy etish lozim deb hisoblayman. Yaʼni bu orqali maʼlum bir maʼnoda xalqning, insonlarning huquqiy ongi va madaniyati oshadi, oʻsadi va ijtimoiy hayotdagi voqealarga mustaqil huquqiy munosabat bildiradi olishadi.

Maʼlumki, Bosh qomusimiz boʻlgan konstitutsiyamizda “Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qilishi” toʻgʻrisidagi norma belgilab qoʻyilgan. Uning ijrosini amalda taʼminlash maqsadida Maʼmuriy islohotlar konsepsiyasi qabul qilindi. Yaʼni jamiyatimizda fuqarolarning oʻrni, huquqlari yanada mustahkamlanib, ijtimoiy hayotda ularni har jabhada qoʻllab quvvatlab, keng imkoniyatlar, qulayliklar yaratib berilmoqda va xalq farovonligini yanada yuksaltirishga xizmat qiladigan bir qator chora tadbirlar koʻrilmogʻda.

Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish boʻyicha maslahat kengashi, Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish markazi, Nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi kelgusi yilda har bir soha va tarmoq boʻyicha jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning taʼsirchan tizimini yaratishga bosh-qosh boʻlishi va tashabbus koʻrsatishi lozim. Konstitutsiyaga asosan sudlar oʻz faoliyatida mustaqil, lekin ularning chinakam nazoratchisi xalq boʻlishi kerak. mamlakatimizda va xorijda fuqarolarimizni kafolatli

himoya qilish bundan buyon ham davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi.

Konstitutsiyamizga muvofiq, fuqarolar davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga ega. Saylovda o'ziga ma'qul bo'lgan nomzod yoki biron-bir partiya ilgari surayotgan dastur uchun ovoz berish, ularni qo'llab-quvvatlash vakillik demokratiyasining yaqqol ko'rinishidir. Fuqarolarning saylash va saylanishga oid huquqlari yanada kengaytirildi va amalda bo'lgan ko'plab cheklovlar bekor qilindi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. TOSHKENT-"O'ZBEKISTON"-2018.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish. X. Odilqoriyev va boshqalar. Toshkent-2010.
3. Prezident SH.M.Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganing 27 yilligiga bag'ishlangan marosimdagi ma'ruzasi. 07.12.2019.
4. Birinchi Prezident. I.A.Karimov. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. O'zbekiston ovozi, 2010-yil 13-noyabr.